

BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR

Toxirjonova Mushtariy Dilmurod qizi

Andijon viloyati Oltinko'l tumani 20 DIMI

Biologiya fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA Maqolada biologiya darslarida o'quvchilarning bilim olishi, tabiatga nisbatan qiziqish uyg'otish, O'zbekistonda evolutsion ta'limoti haqida ma'lumotlarga ega bo'lishlari va mavzuga nisbatan tushunchalarni o'quvchilar ongiga singdirish.

Kalit so'zlar: Keys-stadi, Orkestr", "Bahs", "Pinbord, CH.Darvin, Bigl kemasi, Abu Nasr Farobi, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning evolutsion qarashlari

KIRISH

Maktablarda o'qitiladigan har bir fanning o'quvchi hayotidagi roli kattadir. Shu sababli ham dars jarayonlarini samarali tashkil etish murakkab jarayon va muhim. Mana shularni hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini samarali tashkil qilish borasida bugungi kunda juda ko'plab amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. O'quv jarayonining markazida o'quvchi shaxsi va qadri, ma'naviyati turar ekan, har bir o'qituvchi bu jarayonni samarali va qiziqarli qilib tashkil qila olishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODIKASI


Shuni e'tiborda turish kerakki, shaxsga qaratilgan ta'lim, o'quvchining o'quv-biluv mehnatini tashkil etishni harakatlantiruvchi, uning qiziqish, xohish, talabistaklarini ro'yobga chiqaruvchi kuch bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchi shaxsiga qaratilgan ta'lim, o'quvchining faolligini oshirish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o'rgatish, mustaqilligi va erkinligini ta'min etish, qiziqishlari asosida ish yuritish, ichki imkoniyatlarini ishga solish, o'z qiziqishlari orqali qo'shimcha ta'lim olishga yo'llash, o'z-o'zini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Mana shularni hisobga olib o'rta maxsus ta'lim bosqichida ham darslarni noan'anaviy tarzda tashkil qilish, hamda innnavatsion metodlar asosida bilimlar berish o'sib

kelayotgan yosh avlod tarbiyasida katta yordam va samara bermoqda. Ta’limning bu bosqichida biologiya fani darslarini ham interaktiv usullar asosida olib borish, o’quvchining tushuncha va nazariyalarni to’g’ri anglab, bu bilimlarini amaliy va labaratoriya darslarida mustaqil sinab ko’rish ko’nikmalarini hosil qilmoqda.

Jumladan, akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun “Biologiya” darsligida “Evolutsion tushunchalarning paydo bo’lishi” mavzusini turli interaktiv usullardan foydalangan holda tashkil qilish mumkin.



“Keys stadi” usuli-(case inglizcha-to’plam, aniq vazaiyat, study-o’rganish)- bu usul odatiy hayotni tashkillashtiruvchi vaziyatlarni yaratuvchi va ta’lim oluvchilardan maqsadga muvofiqroq yechim izlashni talab qiluvchi, hayotdan olingan odatiy vaziyatlarni tashkillashtirish yok isun’iy yaratilgan vaziyatlarga asoslanadi. Bunga ko’ra o’qituvchi avvaldan mashg’ulotning mavzusi hamda maqsadi topshiriq sifatida beradi. Bundan kutilayotgan natijani o’quvchilarga tushintiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yuqoridagi mavzu asosida guruhda bahs-munozarali muhitni tashkil qilish uchun, dastlab savollar o’rtaga tashlanadi. Guruhdagi o’quvchilar bu savollar asosida o’z fikr mulohazalarini bayon qilishlari so’raladi. Masalan,

1. Ch.Darvinnинг “Bigl” kemasida qilgan sayohati va uning ahamiyati;
2. Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinoning evolutsion qarashlari; singari fikrlarlar ketma-ketligini talab qiluvchi savollar beriladi.

Qarashlar va bahslarni jonlantirish maqsadida turli video-lavhalar, rasmlardan ham foydalanish mumkin. Yuqoridagi savollarga o’quvchilar guruh bo’lib taqdimotlar ishlab chiqadilar. Har bir guruh fikrlari tinglanadi va qarama-qarshi fikrlarga izoh talab qilinadi. O’qituvchi o’quvchilarni to’g’ri bahsga kirishishga yo’naltiradi.

Keys-ta’lim oluvchilarga muammoni ifodalashni va maqsadga muvofiqroq yechim izlashga yo’naltiruvchi, bir guruh insonlar yoki alohida shaxslarni hayotiy tashkillashishidan olingan ma’lum sharoitlarini bayonli taqdim etilishidan iborat. Keys-stadi qo’llanilgan mashg’ulot oxirida o’qituvchi bahs-munozaralar xususida o’z xulosalarini keltiradi, tushintirishlar beradi.

“Evolutsion tushunchalarning paydo bo’lishi” mavzusini yana “NAmoyish usul”idan foydalanib ham tashkil qilish mumkin. Bunda o’quvchilarga shu mavzu yuzasidan nazariy bilimlar beriladi. Namoyish-ta’lim oluvchilarni obekt va hodisalar, jarayonlarni ularning tabiiy ko’rinishida ko’rgazmali-hissiy tanishtirish usulidir. Bu usulning yetakchi vazifasi o’qitish hisoblanadi.


Mazkur mavzu yuzasidan o’qituvchi quyidagicha namoyish materiallarini ishlab chiqishi mumkin:

Tabiatning tuzilishi, unda ro’y beradigan voqealarni hodisalar haqidagi tushinchalar eramizdan bir necha ming yillar ilgari qadimgi sharq mamlakatlarida paydo bo’lgan: Ta’lim oluvchilar namoyish qilinayotgan obektni yaxshi ko’rishlari va imkon qadar unda nimalar aks etganligini xotirasida saqlay olishlari lozim bo’ladi. Bu esa, o’z navbatida o’qituvchining pedagogik mahorati bilan belgilanadi.

Darsda o'qitish metodlari doimo muayyan birikma holida qo'llaniladi. Darsning har bir bosqichida metodlarning u yoki bu birikmalaridan foydalilaniladi.

KLASTER

Klaster
(Klaster-tutam bog'lam) axborot xaritasini tuzish yo'li barcha tuzilmalariing mohiyatini markazlashtirish uchun qandaydir biror asosiy omil atrofida g'yalami yig'ish bilmlarni faollashtirishni tezlashtiradi.



Mazkur bosqichdagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlovchi metod ustunlik qiluvchi yetakchi tizim hosil qiluvchi metod hisoblanadi, qolgan metodlar unga bo'ysunadi. Biologiyani o'qitishda aksariyat hollarda ko'rgazmali metod yetakchi o'rinni egallaydi, boshqa metodlar unga bo'ysunadi yoki singib ketadi.

Taniqli didaktik olim Y.K. Babanskiy o'qitish metodlarini quyidagi guruhlarga ajratgan:

- O'qitishning og'zaki metodlari (hikoya, suhbat, o'quv ma'ruzasi).
- O'qitishning ko'rgazmali metodlari.
- O'qitishning amaliy metodlari.
- O'qitishning muammoli-izlanish metodlari.

- O‘qitishning mantiqiy metodlari.
- Mustaqil ishslash metodlari.
- O‘qitishda o‘quvchilar faoliyatini rag‘batlantirish va asoslash metodlari.
- O‘qitishning nazorat va o‘z-o‘zini nazorat qilish metodlari. Hozir ayrim metodlar bilan, ularning vazifasi va qo‘llash qonun-qoidalari bilan tanishtirib o‘tamiz.

Birinchi tanishtirmoqchi bo‘lgan va eng ko‘p qo‘llaniladigan metodimiz bu hammamizga tanish bo‘lgan “Aqliy hujum” metodi hisoblanadi. Mazkur metod biror muammo bo‘yicha ta’lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to‘plab, ular orqali ma’lum bir yechimga kelinadigan metoddir. “Aqliy hujum” metodining yozma va og‘zaki shakllari mavjud.

Og‘zaki shaklida ta’lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta’lim oluvchilarning har biri o‘z fikrini og‘zaki bildiradi. Ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar. Yozma shaklda berilgan savolga ta’lim oluvchilar o‘z javoblarini qog‘oz kartochkalariga qisqa va barchaga ko‘rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga yoki “pinbord” doskasiga mahkamlanadi.

“Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma’lum belgilar bo‘yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir. Ushbu metod to‘g‘ri qo‘llanilganda shaxsni erkin, ijodiy fikrlashga o‘rgatishga imkon yaratiladi. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta’lim oluvchilarning barchasini jalb etish mumkin bo‘ladi, ta’lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ularda o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Bildirilgan fikrlar baholanmasligi turli g‘oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta’lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi. “Aqliy hujum” metodi ta’lim beruvchi tomonidan qo‘yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

- Ta’lim oluvchilarning boshlang‘ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo‘yganda, bu metod darsning mavzuning kirish qismida amalga oshiriladi.
- Mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog‘lash maqsad qilib qo‘yilganda yangi mavzuga o‘tish qismida amalga oshiriladi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shuningdek, “Evolutsion tushinchalarning paydo bo’lishi” mavzusini “Aqliy hujum”, “Orkestr”, “Bahs”, “Pinbord” texnikalaridan foydalangan holda ham tashkil qilishi mumkin. Shunday qilib, har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi bo’lgan ta’lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Xoliqov “Pedagogik mahorat” T-2009
2. A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishanqulov, M.Umaraliyeva,
3. I.Abduraxmonova „Biologiya“ 10-sinf uchun darslik Toshkent – „Sharq“ -2017
4. A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipovalar biologiyadan qo’llanma-2020-yil
5. A.G‘afurov, A.Abdukarimov, J.Tolipova, O.Ishanqulov, M.Umaraliyeva,
6. I.Abduraxmonova „Biologiya“ 10-sinf uchun darslik Toshkent – 2022
7. Xalilbek o‘g‘li X. E. et al. YENGIL AVTOMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO’RSATISH STANSIYASI LOYIHALASH //Лучшие интеллектуальные исследования. – 2024. – Т. 19. – №. 1. – С. 236-239.
8. Kholmatov U. S. et al. Characteristics of optoelectronic discrete displacement converters with hollow and fiber light guides //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 471. – С. 06015.
9. Melikuziev A. et al. IMPROVING THE PERFORMANCE OF THE FUEL INJECTION SYSTEM //Development and innovations in science. – 2022. – Т. 1. – №. 14. – С. 10-14.
10. Islomjon o‘g J. V. et al. AVTOMOBILNING ISHONCHLI ISHLASHI UCHUN DVIGATELNI SOVUTISH VA ISH FAOLIYATINI YAXSHILASH //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 52. – №. 1. – С. 142-155.
11. Xalilbek o‘g‘li X. E. KORRUPSIYA-O ‘ZBEK MILLATINING KUSHANDASI //Journal of new century innovations. – 2024. – Т. 52. – №. 1. – С. 130-134.